

## QUYMA MONOLIT TEMIRBETONLI TURAR-JOY BINOLARIDA ICHKI VA TASHQI DEVORLARNI QURISH TEXNOLOGIYASI

**Abdugʻaniyev Sardorbek Abduvoxid oʻgli**

"Bin ova inshootlar qurilishi" yoʻnalishi talabasi.

**Karimxonov Muhammadxoʻja Akmalxon oʻgʻli**

"Bin ova inshootlar qurilishi" yoʻnalishi talabasi.

**Ikromjonov Izzatbek Ibroximjon oʻgʻli**

"Bin ova inshootlar qurilishi" yoʻnalishi talabasi.

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, Andijon vil. Oʻzbekiston.

E. mail: [dors9718@gmail.com](mailto:dors9718@gmail.com)

*Xulosa: ushbu maqolada bin va inshootlarni barpo etish texnologiyasi boʻyicha, quyma monolit temirbetonli binolarda ichki va tashqi devorlarni qurishda ishlarni olib borish usullari keltirilgan. Shu bilan birga, qurilish jarayonlariga texnika va texnologiyalarni olib kirish, ishchi kuchi sonini kamaytirib, qurilish vaqtini tezlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikga erishish usuli koʻrsatilgan.*

***Kalit soʻzlar:** avtokran, iqtisodiy samaradorlik, quyma monolit, ishchi kuchi, maxsus moslama, roxla, ichki va tashqi devor.*

### **Kirish.**


Ushbu maqolada quyma monolit temirbetonli binolarda tosuvchi elementlar, ichki pardozlash materiallari, tashqi va ichki devor qurish uchun materiallar, xamda, paddonga qadoqlangan turli qurilish materiallarini bino ichiga tashib kirishda yuzaga keladigan qiyinchilik va muammolarga yechim topish, ishchi kuchi sarfini

kamaytirish, texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish usuli xaqida ish olib borilgan.

### **Asosiy qism.**

**Muammo.** Bugungi kun qurilishida “quyma monolit” texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyani avzalligi ko‘p va shu bilan birgalikda ayrim kamchiliklari xam mavjud bo‘lib, ulardan biri; quyma monolit usulida bir qavatning barcha konstruksiyalari ustun, to‘sin va yopmalar yaxlit bitta qilib quyilishi sababli xonalarni bo‘lish uchun va tashqi devorlarni qurish uchun kerak bo‘ladigan qurilish materiallarini bino ichida qoldirib bo‘lmaydi. Chunki, quyma monolit quyilgandan +20 °C da 28 sutkada to‘liq quvatga kirishida, bino ichida montaj ishlarini olib borish uchun quyma monolit kamida 75% quvat olishi kerak buning uchun kamida 7 sutka vaqt o‘tadi. Natijada ichki montaj uchun kerak bo‘ladigan materiallarni tashib chiqishga to‘g‘ri keladi. Xozirgi kunda ichki va tashqi devor uchun yegillashtirilgan g‘ovakli bloklar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu qurilish materiali qadog‘ida odatda 0.85m<sup>3</sup> dan 1.25m<sup>3</sup> gacha bo‘ladi va qadoqni xajmi kattaligi sababli qadoqni buzmasdan tashishda turli uammolarni keltirib chiqaradi, qadoqni buzib bo‘laklarga bo‘lingan xolda tashish esa ancha vaqtni oladi. Ayrim binolarda yuk tashish uchun liftlar mavjud bo‘lmaydi va qurilish materiallarini ishkuchi yordamida zinapoyalar orqali tashishga to‘g‘ri keladi va ish vaqti uzunlashadi xamda qoshimcha xarajatlarni ortib ketishiga sabab bo‘ladi. Bunay xollarda qurilishga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri “Iqtisodiy talablar” bajarilmay qoladi.

**Yechim.** Bunday xollarda rigel va ustunga maxkamlanuvchi maxsus moslamadan foydalanib yaxshiroq yechim qilish mumkun. Ushbu moslama metal shvelirdan yasaladi va bo‘laklarga ajralish xususiyatiga ega bo‘lib, uni o‘rnatish va qayta yechib olishda qiyinchiliklar tug‘dirmaydi.



Moslamani birinchi bo‘lagi ustun va rigelga qadab yopma ustidan qo‘yiladi, ikkinchi bo‘lagi rigel osti va yopma ostiga qadalgan xolda rigel tomondan sharnirli, yopma tomonda esa maxsus bo‘lt va gayka yordamida maxkamlanadi. Birlashgan ikki bo‘lak rigel ni to‘liq aylanib o‘tadi, ustun va yopma plitaga maxkam qadalib turadi, shu sababdan tushayotgan yuk konstruksiyalarga taqsimlangan xolda tarqaladi. Moslamani maxkamlash uchun monolit yopma quyish mobaynida maxsus bo‘lt uchun teshik qoldirib ketish zarur.

Maxkamlangan moslamaga avtokran yordamida padonga terilgan xarqanday qurilish materiallarini xar bir etajga joylashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Buning uchun 1 siklda bajariladigan ishlar ketmaketligi quyidagicha bo‘ladi:

- 1-ishchi yukni maxsus arqon yordamida avtokran ilgagiga maxkamlaydi, ish vaqti 1-daqiqa
- Avtokran yukni maxsus moslamaga ko‘taradi, ish vaqti 2-daqiqa
- 2-ishchi arqonni yukdan bo‘shatadi, ish vaqti 1 daqiqa
- 2-ishchi roxla yordamida yukni kerakli bolgan joyga yetgazadi, ish vaqti 3 daqiqa
- Avtokran navbatdagi yukni ko‘tarish uchun qaytadi, ish vaqti 2daqiqa

Ish sikli ushbu tartibda bajarilganda xar bir sikl uchun o‘rtacha 6-8 daqiqa vaqt ketadi. Bundan ko‘rinib turibdiki 2 nafar ishchi bilan barcha yuklarni qavatlar ichiga ko‘tarish mumkin bo‘ladi va ishchi soni kamligi va ish vaqti qisqaligini xisobiga iqtisodiy samaradorlikga erishiladi.

### **Foydalingan adabiyotlar:**

1. Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi” 2018 yil. N.Bozorboyev, X.I.Yusupov, R.A.Narov, A.M.Ilmuradov, V. Rasulov, B.T.Xushnazarov, F.N.Bozorboyev, I.N.Salimova
2. QMQ 3.03.01-98. Yuk ko‘taruvchi va to‘sovchi konstruksiyalar. Toshkent, 1998.
3. QMQ 3.01.02-00. Qurilishda xavfsizlik texnikasi. Toshkent, 2000.
4. “Metall konstruksiyalari” Toshkent 2010 yil Q.A.Saydullayev, Q.Q.Shukurova